

MAMLAKATIMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Pirimov Dostonbek Murod o‘g‘li
Navoiy davlat pedagogika instituti
jismoniy madaniyat fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

O‘sib kelayotgan yosh avlod hayotidagi har bir qadami, uning ezgu-niyatlari, intilish va harakatlari avvaldan ilmiy asoslangan, dasturlashtirilgan pedagogik-psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, albatta, ulardan jamiyatda muhim o‘rin tuta oladigan, yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlanishiga hech shubxa yo‘q.

Kalit so‘zlar: Mamlakatimiz prezidenti, dunyo miqyosida, yuksak intelektual, imkoniatlarini safarbar, ta’limning sifatli, Jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sportni yanada takomillashtirish, yangi bosqichga, farzandlar ta’lim-tarbiyasi, davlat siyosati, o‘sib kelayotgan yosh avlod, intilish va harakatlar, barkamol avlod, jismonan sog‘lom, psixologik jihatdan.

Ключевые слова: Президент нашей страны мирового уровня, высокоинтеллектуальный, мобилизует свои возможности, качество образования, физкультуры, массового спорта, дальнейшего совершенствования спорта, на новый уровень, детское образование, государственная политика, подрастающее молодое поколение, стремления и действия, зрелое поколение, физически здоровое, психологически.

Keywords: The president of our country, world-class, highly intellectual, mobilizes his opportunities, quality of education, physical education, mass sports, further improvement of sports, to a new level, children’s education, state policy, growing young generation, aspirations and actions, mature generation, physically healthy, psychologically.

Hurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁴⁵ degan da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini talab qiladi va

⁴⁵Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.

o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyundagi PQ 3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 2018 yil 14 avgustdagи PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Farzandlar ta’lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasidagi muhim masalaga aylandi. Shu sababli ham mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish muhim vazifa qilib belgilangan. Bu borada respublikamizda amalga oshirayotgan ishlarni jaxon miqyosida yuqori baxolanayotganligining shohidimiz.

O‘sib kelayotgan yosh avlod hayotidagi har bir qadami, uning ezgu-niyatlari, intilish va harakatlari avvaldan ilmiy asoslangan, dasturlashtirilgan pedagogik-psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, albatta, ulardan jamiyatda muhim o‘rin tuta oladigan, yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlanishiga hech shubxa yo‘q.

Barkamol avlodni jismonan sog‘lom va baquvvat qilib tarbiyalash jarayonini, bu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni psixologik jihatdan ilmiy-asosda o‘rganish, tahlil qilish, metodikalar va tavsiyalar ishlab chikishdan iboratdir. Buning uchun quyidagi vazifalar yechimini topish zarur.

Barkamol avlodni jismoniy tarbiyalash jarayoniga tayyorlashning psixologik asoslarini o‘rganish;

Jismoniy tarbiyalash jarayonini psixologik jihatdan o‘rganishning hozirgi holatini o‘rganish;

O‘tmish allomalarining insonni jismoniy-ruhiy yetuk, barkamol qilib tarbiyalash haqidagi qarashlari;

Barkamol avlodni jismoniy va psixologik yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal etishning usullarini ishlab chiqish;

Yosh avlodni jismoniy tarbiyalash jarayonini ilmiy asosda o‘rganib, unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni, tarbiya jarayoniga psixologik ta’sir etish yo‘llarini, metodikalarini ishlab chiqilsa, jismoniy tarbiya yanada samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
2. Shavkat Mirziyoyev
Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
- 3.O'sib kelayotgan yangi O'zbekiston yoshlarini sport bilan muntazam shug'ullantirish va ularni sog'lom qilib tarbiyalash.
Safarov O'lmasbek Sulton O'g'li
4. Iste'dodli va istqibolli sportchilarni tanlash, tarbiyalash va mahoratini oshirish.
Safarov O'lmasbek Sulton O'g'li
5. Har bir yosh avlodni sport bilan muntazam shug'ullantirish va ular orasida sportni keng targ'ib qilish. Safarov O'lmasbek Sulton O'g'li
6. Biz kelajakni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk yoshlar bilan birga quramiz.
7. Jismoniy tarbiya va sport mashqlari orqali yoshlarimizning sog'lom turmush tarzini rivojlanТИRISH.